



YANGI O'ZBEKISTON - IQTIDORLI YOSHLAR QO'LIDA

Hikmatova Shahnoz Mehrididinovna

Buxoro viloyati, Romitan tuman

**“Barkamol avlod” bolalar
maktabi tashkiliy masalalar bo'yicha**

direktor o'rinbosari

Annotasiya: O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish orqali kasb va hunarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'quvchilarni davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ichki turizmni rivojlantirish

Kalit so'zlar: o'quvchining bo'sh vaqti, to'garak mashg'ulotlari, yoshkildanoq kasb va hunarning boshlang'ich kurtaklarini o'rgatishga qiziqtirish

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini rivojlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish maqsadida bugun yurtimizda talaygina ishlar qilinmoqda. Jumladan, Romitan tuman “Barkamol avlod” bolalar maktabi tomonidan poytaxt Toshkent shahri bo'ylab tashkil qilingan sayohat ham iqtidorli va faol to'garak a'zolarini rag'batlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil qilindi. Maktab tomonidan o'tkaziladigan ko'rik-tanlov, musobaqalarda tuman, viloyat respublika va xalqaro miqyoslarda ishtirok etib, yurtimiz ravnaqiga oz bo'lsada o'z hissasini qo'shib kelayotgan bir guruh to'garak a'zolari AKFA universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari universiteti, Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti va Toshkent International University of Education universitetlari bilan yaqindan tanishishdi. Respublika “Barkamol avlod” tomonidan imzolangan memorandumga ko'ra "Barkamol avlod" bolalar maktablarining to'garak a'zolari uchun rejalashtirilgan ekskursiya yo'nalishlari bo'yicha tashkil etilgan sayohat davomida o'quvchi –yoshlar zamonaviy jihozlangan xonalar bilan tanishib chiqishdi hamda IT sohasi bo'yicha malakali professorlardan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob



olishdi. Axborot texnologiyalari, biznes va ta'lim jarayonlarini boshqarish borasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifasini o'z oldiga maqsad qilib olgan ushbu ta'lim maskanlari haqida yetarlicha ma'lumot oldilar. To'garak a'zolari yetakchi oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari bilan yaqindan tanishib, kelajakda shu bilim dargohlarida o'z bilim va iqtidorlarini yanada oshirishlari uchun o'z oldilariga ulkan maqsadlar qo'ygani shak-shubhasiz. Zero, mamlakat taraqqiyoti uchun qo'yilgan dadil va ishonchli maqsadlar o'z samarasini albatta ko'rsatadi.

Intellectual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish borasidagi islohotlarni tizimli amalga oshirish, shuningdek iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash mezonlarini takomillashtirish, o'quvchilarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, vatanparvarlik, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan ushbu sayohatimizning ishtirokchilari biz bilan sayohat taasurotlarini o'rtoqlashdi.

-Yoshligimdan axborot texnologiyalari, kompyuter sohasiga bo'lgan qiziqishimni bilgan oila a'zolarim meni "Barkamol avlod" bolalar maktabining "Yosh dasturchi" to'garagiga a'zo qilishdi. Bu yerda men kompyuter savodxonligidan tortib hozirgi zamonaviy dasturlashning barcha bilim va ko'nikmalarini yaqindan o'rgandim. IT sohasi bo'yicha yetarli ma'lumot va imkoniyatlardan foydalanib, turli ko'rik -tanlovlarda o'z iqtidorimni namoyon etdim. Iste'dod va iqtidorimizni rag'batlantirib, tashkil etilgan ushbu sayohat menga juda yoqdi. Kelajakda shu oliy o'quv yurtlaridan biriga hujjat topshirib, maqsadlarimni amalga oshishi uchun o'z harakatlarimni boshlab yuborishimga turtki bo'lgan sayohatimiz yakunida shuni dadil ayta olamanki, biz Yangi O'zbekiston yoshlari yurtimiz tomonidan yaratib berilayotgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, kelajakda yetuk mutaxassis, Vatan ravnaqi, yurt taqdiri uchun o'z kasbining yetuk bilimdonlari bo'lishga va'da beramiz, -deya o'z so'zini yakunlar ekan maktabning iqtidorli yoshlaridan biri Diyorbek Baxshullayev. Ta'kidlash joizki, bu kabi uchrashuvlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qiladigan barkamol avlod bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi. Zero, bugunning iqtidorli yoshlari ertangi kunimizning, Yangi O'zbekistonning, Uchinchi Renessansning poydevori hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston Strategiyasi". - T.:«O'zbekiston», 2022.- 418 b.
2. Mirziyoyev SH.M. "Ichki turizmni rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Xalq so'zi, 2018 yil 7-fevralPQ-3514
3. www.ziyonet.uz.



